**Abstract:** This article analyzes the process of asset management, one of the most important areas of activity of commercial banks. Since banks participate in the economy as financial intermediaries, the optimal structure and quality of their assets is an important factor in ensuring financial stability and competitiveness. Therefore, the article examines in detail the concept of assets, their types, their place in the bank balance sheet, and management mechanisms. During the study, special attention is paid to the problems encountered in asset management of commercial banks, including the quality of the loan portfolio, liquidity level, risk assessment, and the level of diversification. The article also analyzes the current situation using the example of the banking system of Uzbekistan and provides practical examples based on statistical data on the activities of individual banks. The author offers modern approaches to improving asset management of commercial banks. In particular, proposals are put forward such as digitization of assets, monitoring of risks through automated systems, and development of credit assessment standards based on international criteria.

**Key words:** Commercial banks, bank assets, asset management, loan portfolio, bank liquidity, financial stability, asset structure, investment activity, risk management, asset-liability balance, bank resources, profitability, asset quality, bank capital, credit risks, diversification, digital banking services.

**Аннотация:** В данной статье анализируется процесс управления активами, являющийся одним из важнейших направлений деятельности коммерческих банков. Поскольку банки выступают в качестве финансовых посредников в экономике, оптимальный уровень структуры и качества их активов является важным фактором обеспечения финансовой стабильности и конкурентоспособности. Поэтому в статье подробно рассматривается понятие активов, их виды, роль в банковском балансе, а также механизмы управления. В ходе исследования особое внимание было уделено проблемам, с которыми сталкиваются коммерческие банки при управлении своими активами, включая качество кредитного портфеля, уровень ликвидности, оценку рисков и степень диверсификации. В статье также проанализирована текущая ситуация на примере банковской системы Узбекистана и приведены практические примеры на основе статистических данных по деятельности отдельных банков. Автор предлагает современные подходы к совершенствованию управления активами коммерческих банков. В частности, были выдвинуты такие предложения, как оцифровка активов, мониторинг рисков с помощью автоматизированных систем, разработка стандартов оценки кредитоспособности на основе международных критериев.

**Ключевые слова:** Коммерческие банки, банковские активы, Управление Активами, кредитный портфель, банковская ликвидность, финансовая стабильность, структура активов, инвестиционная деятельность, управление рисками, баланс активов и пассивов, банковские ресурсы, доходность, качество активов, банковский капитал, кредитный риск, диверсификация, цифровые банковские услуги.



## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida banklar moliyaviy tizimning yuragi hisoblanadi. Ular jamg'armalarni jalb qilish, moliyalashtirish va to'lovlarni amalga oshirish orqali iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy vositachilar qatorida turadi. Ayniqsa, tijorat banklari faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning aktivlarini qanday boshqarayotganiga bog'liq bo'ladi. Bugungi kunda banklar uchun faqat foyda olish emas, balki barqarorlikni ta'minlash, risklarni oldindan taxmin qilib, ularni boshqarish, aktivlar tuzilmasini to'g'ri shakllantirish va ularni samarali joylashtirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Aynan shu jarayonlarda aktivlarni boshqarish masalasi katta ahamiyatga ega.

Aktivlar tijorat banklarining moliyaviy salohiyati, foyda olish imkoniyati, mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarish qobiliyati va investitsiya siyosatining asosiy tayanchidir. Bank balansining aktiv qismini tashkil qiluvchi bu mablag'lar turli ko'rinishlarda, ya'ni naqd pullar, kreditlar, moliyaviy investitsiyalar, banklararo operatsiyalar, moddiy aktivlar va boshqa vositalar tarzida ifodalanadi. Ularni boshqarish esa faqatgina bu resurslarni to'g'ri joylashtirish emas, balki ularning xavfsizligi, likvidligi va rentabelligini ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun ham bugungi kundagi global moliyaviy muhitda bank aktivlarini boshqarishni takomillashtirish har bir moliyaviy institutning strategik maqsadi bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida bank tizimi oxirgi yillarda jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bank islohotlari, xususan, raqamli bank xizmatlarini keng joriy etish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish kabi yo'nalishlarda muhim natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, banklar oldida yangi chaqiriqlar ham yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, aktivlar sifati, ularning risklarga moyil bo'lishi va boshqaruv mexanizmlarining yuqori darajada ishlamasligi kabi muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Bunday sharoitda aktivlarni boshqarishni takomillashtirish, ya'ni ularning tarkibini diversifikatsiya qilish, kredit portfellarini sog'lomlashtirish, risklarni baholash va nazorat qilish bo'yicha zamonaviy yondashuvlarni qo'llash dolzarb masalalardan biridir.

Tijorat banklarining aktivlarini boshqarishda asosiy e'tibor kredit operatsiyalariga qaratiladi. Chunki bank aktivlarining asosiy qismini aynan mijozlarga berilgan kreditlar tashkil etadi. Bu operatsiyalar orqali banklar asosiy daromad manbaiga ega bo'ladilar. Ammo ayni vaqtda bu operatsiyalar bilan bog'liq risklar ham yuqori bo'ladi. Kredit oluvchilarning to'lov qobiliyati past bo'lsa yoki iqtisodiy muhit beqaror bo'lsa, bankning aktivlari sifati yomonlashadi, bu esa likvidlik muammolariga, hatto moliyaviy barqarorlikning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, banklar kredit siyosatini chuqur o'ylangan, ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqilgan va doimiy monitoringga asoslangan tarzda yuritishlari zarur.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bank aktivlarini boshqarish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar asarlarida tijorat banklari faoliyatining samaradorligi, risklarni boshqarish tizimi va aktivlar portfelining sog'lomlashtirilishi masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, iqtisodchi olim M.A.Hamdama bank aktivlarini boshqarishning nazariy asoslarini yoritarkan, aktivlar tarkibini aniqlashda bank balansining tuzilmasiga asoslanadi. Unga ko'ra, "bank aktivlari – bu bankning foyda keltiruvchi, tavakkal darajasi nazorat qilinadigan va pul oqimlarini boshqarish imkonini beruvchi resurslar majmuidir". Hamdama ushbu ta'rif orqali bank aktivlarini nafaqat passiv bilan bog'liq moliyaviy majburiyat sifatida, balki bank resurslarini optimal boshqarish vositasi sifatida ham tushuntiradi [7].

Boshqa bir iqtisodchi olim I.A.Karimov o'z tadqiqotlarida tijorat banklari kredit portfelining sifati va u bilan bog'liq risklarni boshqarish mexanizmlariga urg'u beradi. U kreditlar bo'yicha qarzdorlikni kamaytirishning asosiy vositasi sifatida kredit oluvchilarning moliyaviy monitoringini kuchaytirishni taklif qiladi. Unga ko'ra, "kredit riskini kamaytirish uchun har bir kreditlash qarori oldidan mijozning to'lov qobiliyati aniq va tizimli baholanishi zarur, aks holda bank aktivlari sifati keskin pasayadi" [8].

Bank boshqaruvi yo'nalishidagi xorijiy olimlardan biri, Jorj Hempel o'zining "Bank Management" nomli asarida tijorat banklari aktivlarini boshqarishda diversifikatsiyaning roliga katta urg'u beradi. U banklarning kredit, investitsiya va boshqa aktivlari o'rtasida balans saqlashini, bu esa bank faoliyatining barqarorligini ta'minlashini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "aktivlar strukturasi faqat kreditlarga tayanish moliyaviy tavakkalni oshiradi, shuning uchun aktivlar portfelining diversifikatsiyasi barqarorlikning muhim garovidir" [9].

O'zbekiston bank tizimi misolida olib borilgan tadqiqotlarda esa, A.R.Qodirov tijorat banklarining aktivlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bog'liq jihatlarga e'tibor qaratadi. Unga ko'ra, "raqamli transformatsiya banklarda kredit baholash tizimini avtomatlashtirish, real vaqt rejimida aktivlar monitoringini olib borish imkonini yaratadi". Qodirovning fikricha, ayni texnologik yondashuvlar bank aktivlari sifati va rentabelligini oshirishda muhim rol o'ynaydi [10].

Shuningdek, Z.R.Xidirova o'zining ilmiy tadqiqotida bank aktivlarini boshqarishda makroiqtisodiy omillarning ta'sirini tahlil qiladi. U O'zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari va valyuta kurslarining



o'zgarishi bank aktivlariga qanday ta'sir ko'rsatishini ochib beradi. Unga ko'ra, "makroiqtisodiy barqarorliksiz bank aktivlarining sifati ham barqaror bo'lmaydi, bu esa umumiy moliyaviy tizim ishonchligiga salbiy ta'sir qiladi" [11].

Bundan tashqari, Shuningdek, Z.Mamadiyarov, A.Norov, O'.Haydarovlar tijorat banklari aktivlarini boshqarishda innovatsion yondashuvlar va zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni tatbiq etishni muhim deb hisoblashadi. Ularning fikricha, raqamli texnologiyalar asosida aktivlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish tizimlarini joriy etish orqali bank risklarini minimallashtirish, kredit portfelining rentabelligini oshirish va qarzdorlik darajasini pasaytirish mumkin. Bu yondashuvlar "Bank ishi va moliya asoslari" darsligida batafsil yoritilgan [12].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlash va mavzuni chuqur ochib berish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil, solishtirma tahlil, statistik baholash, induktiv va deduktiv yondashuvlar, shuningdek, empirik kuzatuvlar va ekspert baholari asos qilib olindi. Avvalo, tijorat banklarining amaldagi aktivlar tarkibi, ularning tuzilishi va boshqaruv uslublari tizimli ravishda o'rganilib, mavjud yutuq va muammolar aniqlab chiqildi. Tizimli tahlil orqali bank faoliyatidagi aktivlar harakati va ularni boshqarish jarayonidagi o'zaro bog'liqliklar chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy hisobotlari asosida statistik tahlil usulidan foydalanildi. Bu orqali aktivlarning tarkibi, sifati, ularning rentabelligi, likvidligi va xavf darajasi aniqlab berildi. Solishtirma tahlil orqali mamlakatdagi tijorat banklari faoliyati xorijiy banklar tajribasi bilan qiyoslandi va ilg'or tajribalarni aniqlashga e'tibor qaratildi. Induktiv yondashuv orqali banklarda mavjud amaliyotlardan umumiy xulosalar chiqarilgan bo'lsa, deduktiv yondashuv yordamida esa nazariy bilimlar asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Metodologik jihatdan mazkur tadqiqotda empirik ma'lumotlar ham muhim o'rin tutdi. Jumladan, tijorat banklari mutaxassislari bilan suhbatlar va amaliy holatlarni o'rganish asosida aniq tahliliy mulohazalar bildirildi. Shuningdek, mavjud me'yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va strategiyalar tahlili asosida ilmiy xulosalar asoslantirildi. Bularning barchasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatining muvaffaqiyati ularning resurs bazasini to'g'ri boshqarish, ayniqsa, aktivlar portfelini samarali shakllantirish va boshqarishga bog'liqdir. Tijorat banklarining aktivlari – bu bank tomonidan daromad olish maqsadida joylashtirilgan mablag'lar majmui bo'lib, ular nafaqat bankning moliyaviy barqarorligi, balki uning bozor ishtirokchilari orasidagi raqobatbardoshligi uchun ham muhim hisoblanadi. Tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishi ko'p qirrali va murakkab tizimga ega bo'lib, turli risk darajasidagi, har xil muddatli va likvidlik ko'rsatkichlariga ega bo'lgan elementlardan iborat. Bu tarkib, odatda, naqd pul mablag'lari, markaziy bankdagi hisob-kitoblar, kreditlar, investitsiyalar, boshqa moliyaviy vositalar va moddiy aktivlardan iborat bo'ladi.

Bank aktivlarining tarkibi bankning strategik yo'nalishlari va bozor sharoitlariga qarab o'zgaradi. Masalan, iqtisodiy faollik yuqori bo'lgan davrlarda banklar ko'proq kreditlar berishga intilsa, iqtisodiy noaniqliklar paytida esa likvid va xavfsiz aktivlar ulushini oshirishga harakat qiladi. Shu boisdan tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilishini o'rganish ularning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Quyida shunday tuzilmaning namunaviy ko'rinishi jadval shaklida taqdim etiladi (1-jadval):

1-jadval. Tijorat banklari aktivlarining tarkibiy tuzilmasi (shartli ma'lumotlar asosida)<sup>1</sup>.

№	Aktivlar turi	Umumiy aktivlardagi ulushi (%)	Izoh
1	Naqd pul va boshqa likvid mablag'lar	8.5	Markaziy bankdagi hisoblar, kassadagi mablag'lar
2	Markaziy bankdagi depozitlar	5.0	Majburiy zaxiralar va boshqa qo'yilmalar
3	Kreditlar va qarzlar	62.0	Jismoniy va yuridik shaxslarga berilgan kreditlar
4	Investitsiyalar	10.0	Davlat va korporativ qimmatli qog'ozlarga kiritilgan mablag'lar
5	Qayta moliyalashtirish mablag'lari	4.0	Boshqa moliya institutlaridan jalb qilingan mablag'lar

1 Muallif tomonidan tayyorlangan



6	Asosiy vositalar va boshqa aktivlar	7.0	Bino-inshootlar, uskunalar, nomoddiy aktivlar
7	Boshqa aktivlar	3.5	Hisob-kitoblar, debitorlik qarzlari va boshqa moliyaviy aktivlar
Jami		100.0	

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari aktivlarining asosiy qismini kreditlar tashkil etadi. Bu holat banklarning daromad manbai sifatida kredit portfeli muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Kreditlar umumiy aktivlar tarkibida 62 foiz ulushga ega bo'lib, bu banklar iqtisodiyotga real sektor orqali faol moliyaviy vositachilik qilishini bildiradi. Ammo bu ko'rsatkich bilan birga kredit risklari ham oshadi. Shuning uchun banklar kredit berishda qarz oluvchilarning to'lovga layoqatligini chuqur tahlil qilishlari zarur.

Naqd pul va boshqa likvid mablag'lar 8.5 foizni tashkil etgan bo'lib, bu bankning kundalik to'lov majburiyatlarini bajarish imkoniyatini aks ettiradi. Markaziy bankdagi depozitlar ulushi esa 5 foiz atrofida bo'lib, bu ko'rsatkich asosan bank tomonidan majburiy zaxiralar saqlanishi bilan bog'liq. Bu aktivlar yuqori likvidlikka ega bo'lsada, daromad keltirish darajasi pastligi bilan ajralib turadi.

Investitsiyalar esa umumiy aktivlarning 10 foizini tashkil etadi. Bu aktiv turi odatda xavfsiz, lekin nisbatan past daromadlilikka ega bo'lgan davlat obligatsiyalari va yirik korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlaridan iborat bo'lishi mumkin. Banklar investitsion faoliyat orqali diversifikatsiyaga erishib, daromad manbalarini kengaytirishga harakat qilishadi.

Qayta moliyalashtirish mablag'lari 4 foizni tashkil etmoqda, bu boshqa moliya institutlari yoki xalqaro moliyaviy tashkilotlardan jalb qilingan resurslar hisoblanadi. Bu mablag'lar banklar tomonidan kredit portfelini kengaytirish uchun ishlatiladi. Bu turdagi aktivlar o'z vaqtida qaytarilmasa, moliyaviy muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Asosiy vositalar va boshqa moddiy aktivlar esa 7 foiz ulush bilan bank infratuzilmasining jismoniy asosini tashkil etadi. Bino-inshootlar, texnik vositalar, axborot tizimlari va boshqa ko'chmas mulklar bu toifaga kiradi. Ular bevosita daromad keltirmasa-da, bank xizmatlarining sifatli ko'rsatilishiga xizmat qiladi.

Boshqa aktivlar esa 3.5 foizni tashkil etib, bu yerga odatda debitorlik qarzlari, hisob-kitoblar va boshqa moliyaviy vositalar kiritiladi. Bu aktivlar ko'p hollarda qisqa muddatli bo'lib, bankning joriy faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish – bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, risklarni kamaytirish va daromadlilikni oshirishga qaratilgan muhim jarayondir. Zamonaviy bank tizimida bu yo'nalishda quyidagi amaliy choralar va yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi (2-jadval):

## 2-jadval. Tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari<sup>2</sup>

№	Takomillashtirish yo'nalishi	Mazmuni
1	Kredit portfelini diversifikatsiya qilish	Kreditlarni turli soha va mijozlar o'rtasida muvozanatli taqsimlash orqali kredit riskini kamaytirish.
2	Risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish	Kredit skoring, stress-test va tahliliy vositalar yordamida risklarni baholash va nazorat qilish tizimini mustahkamlash.
3	Raqamli texnologiyalarni joriy etish	Aktivlarni avtomatlashtirilgan platformalar yordamida monitoring qilish va prognozlashtirish orqali samarador boshqaruvga erishish.
4	Investitsion faoliyatni faollashtirish	Davlat obligatsiyalari, korporativ qimmatli qog'ozlar va istiqbolli loyihalarga mablag' yo'naltirish orqali aktivlarni ko'paytirish.
5	Likvidlik va daromadlilikni muvozanatlash	Tez pulga aylantiriladigan aktivlar ulushini optimal darajada saqlash, likvidlik xavfini kamaytirish.
6	Xodimlar malakasini oshirish	Kredit tahlili, moliyaviy menejment va risklarni boshqarish sohalarida xodimlar malakasini oshirish orqali boshqaruv sifatini yaxshilash.
7	Ichki nazorat va audit tizimini kuchaytirish	Har chorakda aktivlar sifatini tahlil qilish va aniqlangan muammolarga tuzatishlar kiritish orqali faol nazoratni amalga oshirish.
8	Mijozlar bazasini kengaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish	Bank xizmatlarini takomillashtirish orqali mijozlar ishonchini oshirish va yuqori daromadli aktivlar bazasini kengaytirish.

2 Muallif tomonidan tayyorlangan



Yuqoridagi jadvalda keltirilgan yo'nalishlar tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish uchun muhim strategik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, kredit portfelini diversifikatsiya qilish risklarni kamaytirish va aktivlar xavfsizligini ta'minlashda asosiy omil sanaladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish esa bank faoliyatining samaradorligi va shaffofligini oshirib, aktivlar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish orqali banklar potentsial tahdidlarni oldindan aniqlab, ularning salbiy ta'sirini minimallashtiradi. Investitsion faoliyatni rivojlantirish va aktivlar portfelini diversifikatsiya qilish orqali banklar daromad manbalarini kengaytiradi. Shuningdek, malakali kadrlar va samarali ichki nazorat tizimi bank aktivlarining sifati va foydaliligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Mijozlar bazasini kengaytirish esa bank xizmatlariga bo'lgan ishonchni oshirib, ko'proq resurs jalb qilish imkonini beradi. Umuman olganda, bu takliflar tijorat banklarining barqaror va raqobatbardosh faoliyat yuritishini ta'minlaydi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tijorat banklari faoliyatining samaradorligi va barqarorligi bevosita ularning aktivlarini boshqarish sifatiga bog'liq. Mazkur maqolada tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish masalalari keng yoritildi, shuningdek, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bank aktivlarini samarali boshqarish bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu sohada innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish zarur.

Birinchiidan, kredit portfelini diversifikatsiya qilish orqali banklar o'zlarining risklarini sezilarli darajada kamaytirishi mumkin. Kreditlarni faqat bitta sohaga yoki yirik mijozlarga qaratish risk hisoblanadi, shu sababli turli tarmoqlar va mijoz segmentlariga taqsimlash muhimdir. Bu nafaqat risklarni tarqatishga yordam beradi, balki bank faoliyatining barqarorligini oshiradi.

Ikkinchiidan, banklar o'z risklarni boshqarish tizimini takomillashtirishi lozim. Kredit risklarini aniqlash va baholash uchun ilg'or tahliliy vositalar, shu jumladan, stress-testlar va kredit skoring tizimlari keng joriy etilishi zarur. Bu usullar banklarga potentsial muammolarni oldindan aniqlash va ularga qarshi samarali choralar ko'rish imkonini beradi.

Uchinchiidan, raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirish jarayonlarini keng joriy etish bank faoliyatining barcha jabhalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Aktivlarni real vaqt rejimida monitoring qilish, ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlari bank rahbariyatiga aniq va tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

To'rtinchiidan, investitsion faoliyatni faollashtirish lozim. Bank aktivlarini faqat kreditga qaratmasdan, davlat obligatsiyalari, korporativ qimmatli qog'ozlar va istiqbolli loyihalarga yo'naltirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi va bankning likvidlik holatini mustahkamlaydi.

Beshinchiidan, bank xodimlarining malakasini oshirish va ichki audit tizimini kuchaytirish dolzarb masaladir. Malakali mutaxassislar bank aktivlarini boshqarish jarayonida yuqori sifatni ta'minlaydi, ichki nazorat tizimi esa faoliyatdagi kamchiliklarni aniqlab, vaqtida bartaraf etishni ta'minlaydi.

Oxirgi o'rinlarda, mijozlar bazasini kengaytirish va xizmat sifatini oshirish banklar uchun raqobatbardoshlikni kuchaytirish va aktivlarni ko'paytirish imkoniyatini beradi. Mijozlarning talab va ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish, yangi xizmatlarni joriy etish orqali banklar o'z pozitsiyasini mustahkamlashi mumkin.

Yuqoridagi takliflarni amalga oshirish tijorat banklari faoliyatining samaradorligini oshiradi, ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi hamda bozordagi raqobatbardoshligini yanada kuchaytiradi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda banklar aktivlarini boshqarishda yangicha, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'z navbatida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda, tijorat banklari aktivlarini boshqarishni takomillashtirish banklarning moliyaviy sog'lomligini oshirish va ularning uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladigan asosiy omil hisoblanadi. Shu bois, banklar yuqorida ta'kidlangan strategiyalarni amalga oshirish orqali o'z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etishi va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda o'z hissasini qo'shishi lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi 154-I-sonli Qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni <https://lex.uz/docs/-4581969>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 13-sentabrda PQ-3272-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-3339554>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-mayda "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/-4811025>



5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4720-sonli Farmoni <https://lex.uz/docs/-2635197>
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2020-yil 3-iyundagi «Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida»gi 3254-sonli qarori <https://lex.uz/docs/-4888804>
7. M.A.Hamdova. Bank ishi. (Darslik). Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2021. 328 bet.
8. I.A.Karimov. Tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimi. – Toshkent: "Moliyachi", 2020. 215 bet.
9. Hempel G. H., Simonson, D. G., & Coleman, A. B. Bank Management: Text and Cases. John Wiley & Sons, 1994.
10. A.R.Qodirov. Tijorat banklarida raqamli texnologiyalar asosida aktivlarni boshqarish. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, 2023, №2. – B. 47–53.
11. Z.R.Xidirova. Bank aktivlariga makroiqtisodiy omillarning ta'siri. // "Moliyaviy tahlil" jurnali, 2022, №4. – B. 29–36.
12. Z.Mamadiyarov, A.Norov, O'.Haydarov. Bank ishi va moliya asoslari. Darslik –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021 – 240 b.
13. <http://www.lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi sayti
14. <https://www.imv.uz> – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi sayti
15. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi sayti
16. <https://cbu.uz/> – O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki sayti



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>